

KO'RISH IMKONIYATI CHEKLANGANLARDA BOSHQA SEZGILARNING RIVOJLANISHI VA MIYANING YANGITDAN MOSLASHUVI.

Hasanov Jamshid Shokir o'g'li
Profi University Navoiy filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda ko'rish patologiyasiga ega (ko'r va zaif ko'radigan) shaxslarda hissiy bilish, idrok etish, xotira tasvirlari (tasavvur/vakillik), mantiqiy tafakkur hamda diqqat jarayonlarining psixofiziologik va kognitiv struktura o'zgarishlari tahlil qilinadi. Vizual deprivatsiya sharoitida interanalizator aloqalarining qayta qurilishi, gaptik va instrumental idrokning kompensatorlik roli, verbalizm hamda suksessivlik muammolari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tiflopsixologiya, sensor bilish, interanalizator aloqalari, gaptika, bimanual palpatsiya, verbalizm, kompensatsiya, suksessivlik, appersepsiya.

Kirish

Inson retseptor tizimida ko'rish analizatori tashqi olam haqidagi axborotning qariyb 90 foizini qabul qiluvchi dominant afferent kanal hisoblanadi. Vizual funksiyaning to'liq (amavroz) yoki qisman (ambliopiya, gipoplaziya) yo'qolishi hissiy-sezgi sohasida jiddiy desinxronizatsiyani keltirib chiqaradi. Biroq inson neyropsixik tizimining yuqori darajadagi plastikligi va kompensator imkoniyatlari saqlanib qolgan analizatorlar hamda oliy psixik funksiyalar integratsiyasi orqali obyektiv borliqning adekvat aks ettirilishini ta'minlaydi.

Interanalizator aloqalarining qayta qurilishi va taktil-motor afferentatsiyasi Vizual analizator funksiyasining izdan chiqishi interanalizator aloqalarining funksional qayta qurilishiga va yangi vaqtinchalik nerv bog'lanishlarining shakllanishiga olib keladi. Natijada teri-harakat (taktil-kinestetik) va eshitish analizatorlari nisbiy yoki to'liq dominantlik pozitsiyasini egallaydi. I.M. Sechenov ta'kidlaganidek, ko'z va qo'l harakatlari (akkomodatsiya, konvergensiya hamda palpator harakatlar) bir xil fiziologik mexanizmga ega bo'lib, obyektning shakli, o'lchami, hajmi va fazoviy joylashuvini adekvat aks ettiradi. Taktil idrok faoliyatda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi.

Passiv sezish: Tinch holatdagi teri-mexanik retseptorlari faoliyatiga tayanadi. U harorat, og'irlik va sirt materialini aks ettirsa-da, kontur va shaklni aniqlay olmasligi sababli obyektning yaxlit tasvirini shakllantirmaydi (bo'lingan/fragmentar xarakterga ega). Faol sezish (Gaptika): Teri-mexanik va motor analizatorlarining sinergik faoliyatiga asoslanadi. Qo'lning faol paypaslash harakatlari obyektning konturi, shakli va hajmini tahlil qilib, yaxlit gaptik tasvirni yaratadi. Instrumental (vositali) sezish: Tayoqcha, zond yoki stilus kabi vositalar yordamida taktil maydonni kengaytiradi. U haroratdan tashqari barcha fizik xususiyatlarni aks ettirib, sirtning mikrorelyefi, burchaklari va nosimmetrikliklarini to'g'ridan-to'g'ri gaptikaga nisbatan aniqroq differensiyalaydi. Palpatsiyaning struktura-dinamikasi (B.F. Lomov bo'yicha): Bimanual (ikki qo'lli) palpatsiya taktil maydonni



kengaytirib, sezish tezligi va aniqligini 1.5–2 baravargacha oshiradi. U konsentrik tamoyil bo'yicha uch bosqichda kechadi: Orientatsion harakatlar: Obyektning taktil zonadagi o'rnini belgilash. Birlamchi palpatsiya: Obyekt konturi va detallarini differensiyalangan tarzda tahlil qilish. Takroriy palpatsiya: Taktil signallarni sintezlab, integral fazoviy tasvirni hosil qilish.

Idrok xususiyatlari va xotira tasvirlari (vakillik) dinamikasi ko'rish patologiyasida idrokning fiziologik mexanizmi (birinchi va ikkinchi signal tizimlarining o'zaro ta'siri) saqlanib qolsa-da, uning dinamik ko'rsatkichlarida quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi. Simultanlikdan suksessivlikka o'tish: Obyektning bir vaqtning o'zida yaxlit qamrab olish o'rniga, belgilarni ketma-ket, bosqichma-bosqich o'rganish usuli yetakchilik qiladi. Appertsepsiya va selektivlikning zaiflashuvi. Sensor tajribaning yetarsizligi hamda tashqi stimulyatsiyaning kamayishi sababli idrokning tanlash xususiyati va umumshtirish darajasi nisbatan pasayadi. Binokulyar ko'rishning buzilishi: Chuqurlik, perspektiva va fazoviy masofani idrok etishda disproportsiyani keltirib chiqaradi. Vizual tajribaning qisqarishi xotira tasvirlari (vakillik) va tasavvur sohasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Parchalanganlik (fragmentarlik) va sxematiklik. Obyekt tasvirida muhim tahliliy detallarning tushib qolishi. Verbalizm: Leksik tushuncha (so'z) va uning ortida turgan konkret hissiy-sezgi obyekti o'rtasidagi uzilish. Tasvirlar shakllanish jarayonida 3 bosqichni o'taydi: differensiyalanmagan (sxematik) kombinatsiyalashgan (muhim va ikkinchi darajali belgilar aralash) adekvat umumshtirilgan. Yosh ulg'ayishi, amaliy tajriba va kognitiv treninglar natijasida fazalararo o'tish sekinligi bartaraf etiladi.

Tafakkur va diqqat jarayonlarining kompensator-korreksion roli. Hissiy bilishdagi uzilishlarni hamda gaptik tasvirlarning suksessivligini to'ldirishda mantiqiy tafakkur hal qiluvchi kompensator vazifasini bajaradi. Tiflopsixologiyada fikrlash rivojlanishi bo'yicha uchta asosiy konsepsiya mavjud (A.G. Litvak, A.F. Samoilov). Jadal rivojlanish nazariyasi-vizual nuqsonni qoplash maqsadida mantiqiy fikrlash normaga nisbatan tezroq rivojlanadi (S.F. Struve, K. Byurklen). Salbiy ta'sir nazariyasi-hissiy tajriba yetishmasligi rasmiy va yuzaki tushunchalarning shakllanishiga olib keladi (M.I. Zemtsova, F.N. Shemyakin). Mustaqillik nazariyasi - aqliy faoliyat darajasi ko'rish nuqsoniga emas, balki ta'lim va kompensatsiyani boshqarish usuliga bog'liq (A.I. Zotov). Ilk rivojlanish bosqichlarida orientatsion-qidiruv faoliyatining cheklanishi introversiyaga va harakat faolligining pasayishiga olib keladi. Idrok sekinligi diqqatni almashtirish va hajm ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq maqsadli va irodaviy faoliyat orqali diqqatning konsentratsiyasi va barqarorligi yuqori darajagacha kompensatsiyalanadi.

Xulosa qilib ayatdigan bo'lsak, ko'rish qobiliyati buzilgan shaxslarda sensor bilishning o'ziga xosligi va idrok tasvirlarining deformatsiyasi obyektiv borliqni adekvat aks ettirish imkoniyatini cheklamaydi. Nutq, mantiqiy tafakkur, bimanual va instrumental gaptika hamda maxsus metodikalar asosida tashkil etilgan korreksion-pedagogik jarayon orqali neyropsixik kompensatsiyaga erishiladi. Bu esa ushbu shaxslarning to'laqonli kognitiv, kasbiy va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Литвак А. Г. Психология слепых и слабовидящих: учеб. пособие / А. Г. 2.Литвак. — СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2006. — 336 с.
- Земцова М. И. Пути компенсации слепоты в процессе познавательной и трудовой деятельности / М. И. Земцова. — М.: Изд-во АПН РСФСР, 1956. — 419 с.
- 3.Сеченов И. М. Элементы мысли / И. М. Сеченов. — М.: Питер, 2001. — 416 с. — (Серия «Мастера психологии»).
- 4.Ломов Б. Ф. Человек и техника: Очерки инженерной психологии / Б. Ф. Ломов. — 2-е изд. — М.: Советское радио, 1967. — 384 с.
- 5.Солнцева Л. И. Тифлопсихология детского возраста / Л. И. Солнцева. — М.: Водoley, 2006. — 256 с.
- 6.Бюрклен К. Психология слепых / К. Бюрклен; пер. с нем. — М.: Учпедгиз, 1934. — 264 с.
- 7.Зотов А. И. Особенности ощущений и восприятия у слепых и слабовидящих // Вопросы психологии слепых и слабовидящих. — Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1981. — С. 3–18.
- 8.Hatton, D. D., & Erickson, K. A. (2010). *Cognitive development in children with visual impairment*. In M. A. Heller & S. Ballesteros (Eds.), *Touch and Blindness: Psychology and Neuroscience* (pp. 112–135). Psychology Press.
- 9.Heller, M. A. (2000). *Touch, Representation, and Blindness*. Oxford: Oxford University Press. — 288 p.